



YOSH ILMIY TADQIQOTCHI

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MAQOLALAR TO'PLAMI

2025-yil 12-13-mart

BUXORO DAVLAT UNIVER



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

“YOSH ILMIY TADQIQOTCHI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Buxoro shahri, 2025-yil 12-13-mart

BUXARA -2025
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

1. Bohn, Rainer (1994): Arbeit an lexikalischen Kenntnissen, in: Einführung in die Didaktik des Unterrichts. Deutsch als Fremdsprache mit Videospielen, Band 1. Göppingen: Schneider Verlag Hohengehren, GmbH, S.179.
2. Storch, Günther (1999): Deutsch als Fremdsprache: eine Didaktik: theoretische Grundlagen und praktische Unterrichtsgestaltung, München: Wilhelm Fink, S.141)
3. Neveling, Christiane (2016): Verfügen über sprachliche Mittel: Wortschatz, in: Handbuch Fremdsprachenunterricht, Stuttgart: A. Francke Verlag Tübingen, S.117
4. Storch, Günther (1999): Deutsch als Fremdsprache: eine Didaktik: theoretische Grundlagen und praktische Unterrichtsgestaltung, München: Wilhelm Fink, S.55-56.
5. Düwell, Henning (1995): Der Fremdsprachenlerner, in: Handbuch Fremdsprachenunterricht, Thübingen, A. Francke Verlag, S. 167.

Ilovalar:

<https://sultonov.wordpress.com/tag/berufe/>
<https://lex.uz/docs/-2126032>

NEMIS TILI DARSLARIDA IMO-ISHORALARNING QO'LLANILISHI

Babayev Maxmud Tashpulatovich

Buxoro davlat universiteti

"Nemis filologiyasi" kafedrası o'qituvchisi

email: m.t.babaev@buxdu.uz

Mustafayeva Bahtigul Rauf qizi

Buxoro davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti

11-3GHTF-22 guruhi talabasi


Annotatsiya: Mazkur maqolada tana tillari mohiyati, uning barcha sohalar qatori ta'lim sohasida ham alohida o'ringa ega ekanligi va bundan tashqari o'quv jarayonida uning qo'llanilish vazifasi hamda maqsadi va boshqa funksiyalari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Tana tili, muloqot shakli, paralingvistik vositalar, noverbal shakllar, xatt – harakat, distsiplina, tushunishni osonlashtirish, diqqatni jamlash, emotsiya ifodalari, kodlash, dekodlash.

Bugungi kunda ta'lim tizimi jamiyatning rivojlantirish va kelajak avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev “ Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda hal qiluvchi

o'rin tutadigan ta'lim – tarbiya sohasidagi ishlar ko'lami tobora ortib bormoqda. Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb – hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda yoshlarning ongi va qalbini egallash kuchayayotganini hisobga oladigan ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur ”⁸⁶ deya ta'kidlagan edi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muloqotning juda katta qismini noverbal aloqa tashkil etadi. Til - muloqot vositasi. Ammo uning ishtirakisiz ham muloqotga kirishish mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Muomala qilish uchun xizmat qilish tilining eng muhim funksiyasi bo'lib, insonlar til orqali bir birlarini tushunadilar, aloqa qiladilar, axborot almashadilar hamda jamiyatda kishilar bir birlariga til orqali ta'sir etadilar. Noverbal muloqot va xulq – atvor to'g'risidagi ilmiy izlanishlar 1872-yilda Charlz Darvinning “Insonlar va hayvonlarda emotsiyalar ifodasi” nomli asarining nashri bilan boshlanadi. O'shandan buyon so'zlarsiz muloqot va xatti – harakatlarning turlari, ta'siri va ularning ifoda etilishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. O'zbek tilshunosligida paralingvistik vositalar yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, A.Nurmanov, M.Saidxonov, S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, A. Aripova, Z.Akbarova, Q.Rasulov, A.Haydarov, G.Toirrova, B.Axmedov tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. O'zbek tilshunosligida paralingvistik vositalar tadqiqi A.Nurmonovning “ O'zbek tilining paralingvistik vositalari “ risolasida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, paralingvistik vositalarning monografik planda o'rganilishi M.Saidxonovning “ Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi “ nomli nomzodlik ishida aks etgan. Amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7 %, paralingvistik omillar 38 % va noverbal harakatlar 58 % gacha ta'sir etgan.

⁸⁶ Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.



Harakat muloqoti kodlash va dekodlashning ongli va ongsiz jarayonlarini o'z ichiga oladi. Kodlash bu - ishorani qabul qiluvchining qanchalik tushungani, ishongani va his qilganligiga qarab, so'zlovchining qobiliyatini va sifatiga aniqlash, ya'ni, bu yuz ifodalari, imo-ishoralar va pozitsiyalar kabi ma'lumotlarni yaratish harakati. Dekodlash tinglovchi qanchalik xatti-harakatlarni tushunganligini ifoda etadi. Ma'lumotni dekodlash ma'lum bir qabul qilingan sezgilar haqidagi bilimlardan foydalanadi. Barcha sohalar kabi ta'lim sohasida ham tana tilining alohida o'rni va funksiyalarga ega ekanligini ko'rish mumkin. Nemis pedagogi Elisabeth Halm "Theorie Körpersprache" nomli ilmiy nazariyasida tana tilining kommunikatsiyadagi ahamiyati va o'qitish jarayonidagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Muallifning ta'kidlashicha, tana tili dars jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchi o'z tana harakatlari orqali o'qituvchilarga turli xil ma'lumotlarni yetkazadi. Tana tilining dars jarayonidagi funksiyalari quyidagilardir:

- O'qituvchi o'z tana tili orqali o'quvchilarni darsga jalb qiladi va ularning e'tiborini ushlab turadi.
- Distsiplinani saqlash uchun tana harakatlaridan foydalaniladi. Masalan, ko'z bilan aloqa qilish, qoshni ko'tarish, boshni qimirlatish, qo'l harakatlari orqali o'quvchilarga darsning ahamiyatini bildirish mumkin.
- Tushuntirish jarayonida tana harakatlari, imo-ishoralar va yuz ifodalari so'z bilan berilgan axborotni to'ldiradi, tushunishni osonlashtiradi.
- O'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazadi – do'stona va ochiq tana tili o'quvchilarni darsga ijobiy munosabatda bo'lishga undaydi.
- Darsning formal yoki noformal muhitda o'tishiga ta'sir qiladi – tana tili orqali o'qituvchi yaqin yoki rasmiy muhit yaratishi mumkin.

- Tushuntirishni osonlashtirish soʻz bilan tushuntirish qiyin boʻlgan narsalarni tana tili yordamida tushuntirish mumkin. Masalan, murakkab tushunchalarni qoʻl harakatlari yoki yuz ifodalari bilan qoʻshimcha ravishda anglatish.
- Oʻquvchilar bilan aloqa oʻrnatish koʻz bilan aloqa oʻquvchilarga eʼtibor qaratilganini bildiradi, ochiq tana holati esa oʻquvchilarning fikrlarini erkin bildirishga undaydi.
- Oʻquvchilarning his-tuygʻulariga taʼsir qilish oʻqituvchining tana harakatlari va imo-ishoralari dars muhitining iliq yoki sovuq boʻlishiga taʼsir qiladi. Doʻstona va ochiq tana harakati ijobiy muhit yaratadi.
- Oʻqituvchi nufuzini shakllantirish qatʼiyatli va ishonchli tana tili oʻqituvchining obroʻsini oshiradi va oʻquvchilar uni hurmat qilishiga yordam beradi.

Chet tili oʻqituvchilari xususan, nemis tili mutaxassislari dars berish jarayonida aynan nemislarda mavjud boʻlgan turli xildagi tana tillaridan foydalanishi toʻgʻridir. Chunki har bir mamlakatning oʻziga xos boʻlgan va boshqalariga oʻxshamagan harakat tillari boʻladi. Qaysidir davlatda ijobiy maʼnoda qoʻllaniladigan noverbal shakllar boshqasida salbiy maʼno ifodalishi mumkin. Va bu jihatlarni oʻquvchilar farqlay olishi dars berayotgan xodimga uzviy ravishda bogʻliqdir. Nemis tili oʻqituvchilari uchun odatiy boʻlgan noverbal shakllar quyidagilardir:



1-rasm.



2-rasm.

Rasmda o'quvchilarning diqqat qaratishi nazarda tutilgan.



3-rasm.

Rasmda o'quvchilarni diqqatini jamlashi aks ettirilgan.

O'quvchilarning tinglashini nazarda tutgan ishora aks etgan.



4-rasm.

Rasmda o'quvchi doskaga chiqishiga ishora qilingan.

Xulosa qilib aytganda, tana tili o'qitish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. U o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, tushunishni osonlashtirish va samarali muloqot o'rnatish uchun muhim vositadir. O'qituvchi o'zining tana harakatlari, yuz ifodalari, qo'l imo-ishoralari va ovoz ohangidan ongli ravishda foydalanishi kerak. Tana tilidan to'g'ri foydalanish o'qitish jarayonini jonlantiradi va o'quvchilarning faolligini oshiradi. O'qituvchilar bu vositadan xabardor bo'lib, uni ongli ravishda qo'llashsa, dars samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu sababli, o'qituvchilar nafaqat verbal muloqotni, balki neverbal signallarni ham o'rganish va rivojlantirishga e'tibor qaratishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva R. S. Boshlang'ich ta'limda tana tili // International Scientific-Practical Conference. – 2024. – №2988. – B. 2295–2283. – URL:
2. Davronov A. "Maqola" // ResearchGate. – URL:
3. Elisabeth Halm – "Theorie Körpersprache"
4. Kadirova X.B. "O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ta'lim sifatini belgilovchi omillar" // International Scientific Journal of Biruni. – 2022. – URL:
5. Tojiyavani M. M. Samarali pedagogik muloqotni tashkil etish ta'lim sifatini oshirishdagi muhim omil // ResearchGate. – 2024. – UR:

	<i>Sadriddinovna</i>	<i>xarakter talqini</i>	
83.	<i>Nematova Sarvinoz Qamariddinovna</i>	<i>Zulfiya she'riyatida kun va tun obrazlarining badiiy ifodasi</i>	437
84.	<i>Babayev Maxmud Tashpulatovich G'aybulloyev Asilbek Ruxillo o'g'li</i>	<i>Xorijiy til - nemis tili darslarida leksikani o'rgatish</i>	444
85.	<i>Babayev Maxmud Tashpulatovich Mustafayeva Bahtigul Rauf qizi</i>	<i>Nemis tili darslarida imo-ishoralarning qo'llanilishi</i>	450
86.	<i>Babayev Maxmud Tashpulatovich Murodova Munira Bekdulla qizi</i>	<i>Germaniyadagi talabalar muhiti til aloqalarining ba'zi xususiyatlari haqida</i>	455
87.	<i>Babayev Maxmud Tashpulatovich Ne'matova Sitora O'ktam qizi</i>	<i>O'yin va uning herman hesse ijodidagi in'ikosi</i>	460
88.	<i>Abdullayev Nurbek Alisher o'g'li</i>	<i>Tarjimonlik faoliyatida sun'iy intellektning roli</i>	466
89.	<i>Xalillayev Firdavs Ibadullo o'g'li</i>	<i>Sun'iy intellekt bilan tarjimaning buzilishi</i>	471
90.	<i>Mansurova Feruza Hikmat qizi</i>	<i>“She'riyatda obraz tushunchasi va ko'z obrazining talqini”</i>	476
91.	<i>Hakimova Moxinur Istam qizi</i>	<i>"Munshaot" bir toshbosma nusxasining matni tahlili (asar tarkibidagi 1-maktub misolida)</i>	480
92.	<i>Ahatova Durdona Davron qizi</i>	<i>Omon Muxtor hikoyalarining mavzu ko'lami</i>	486
93.	<i>Хусанбоев Иброхимжон Отабек угли</i>	<i>Повышение мотивации к изучению иностранных языков студентов медицинского направления</i>	490
94.	<i>Badalov Feruz Nuriddinovich</i>	<i>O'zbek va xorijiy tilshunoslikda matn va unga aloqador masalalar tadqiqi</i>	497
95.	<i>Абдурахманова Сарвиноз Орифжон кизи</i>	<i>Феномен языковой интерференции в условиях билингвизма</i>	502
96.	<i>Jurakulova Parizoda Otabek qizi</i>	<i>The importance of cultural awareness and critical thinking in second language learning</i>	507
11-SHO'BA IJTIMOIIY GUMANITAR SOHALAR			512
97.	<i>Durdona Jamolova</i>	<i>Buxoroda gidlik xizmatini rivojlantirishda tarixiy manbalarning roli</i>	512
98.	<i>Ismailov Shuxrat Atamurodovich</i>	<i>Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy himoya va ijtimoiy siyosat yuritishning asosiy omillari</i>	516
99.	<i>Темиров Фаррух Умедович</i>	<i>Шарқ алломаларининг илмий-маънавий меросини ўрганиши – Янги</i>	524